

e-ISSN 3060-5059

DOI: 10.67227



IJTIMOYIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNAL

Scientific and Innovative Research in
Social and Humanitarian Studies

Vol. 3 • Issue 7

2026



Founded in 2024



publishscience.uz



publish_science_journal@mail.ru



PEER REVIEWED • OPEN ACCESS

OLIIY TA'LIMDA INGLIZ TILINI O'QITISHNING SIMULYATSION TEXNOLOGIYALARGA ASOSLANGAN DIDAKTIK MODELI

Yigitaliyeva Nozimaxon Farxodjon qizi

Farg'ona jamoat salomatligi tibbiyot instituti, o'qituvchi.

e-mail: nyigitaliyeva96@gmail.com ORCID: <https://orcid.org/0009-0006-8244-3404>

Annotatsiya.

Ushbu maqolada oliy tibbiy ta'lim muassasalarida ingliz tilini o'qitish jarayoniga simulyatsion texnologiyalarni integratsiya qilishning didaktik modeli tahlil qilingan. Tadqiqot doirasida pediatriya yo'nalishi talabalarining kasbiy va kommunikativ kompetensiyalarini rivojlantirishda an'anaviy hamda simulyatsion metodlarning samaradorligi qiyosiy o'rganildi. Pedagogik eksperiment natijalari shuni ko'rsatdiki, simulyatsion ssenariylar, virtual reallik va Obyektiv tizimlashtirilgan klinik imtihon (OSCE) elementlaridan foydalanish talabalarning kasbiy tildagi o'zlashtirish ko'rsatkichini 13,3% ga oshirgan. Tadqiqot xulosalari tibbiy ingliz tilini o'qitish metodikasini takomillashtirishga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: tibbiy ta'lim, didaktik model, ingliz tili, simulyatsion texnologiyalar, kasbiy-kommunikativ kompetensiya, OSCE, standartlashtirilgan bemor..

ДИДАКТИЧЕСКАЯ МОДЕЛЬ ПРЕПОДАВАНИЯ АНГЛИЙСКОГО ЯЗЫКА В ВЫСШЕМ ОБРАЗОВАНИИ НА ОСНОВЕ СИМУЛЯЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ

Йигиталиева Нозимахон Фарходжон кизи

Ферганский медицинский институт общественного здоровья, преподаватель.

Аннотация.

В данной статье анализируется дидактическая модель интеграции симуляционных технологий в процесс преподавания английского языка в высших медицинских образовательных учреждениях. В рамках исследования была проведена сравнительная оценка эффективности традиционных и симуляционных методов в развитии профессиональных и коммуникативных компетенций студентов направления «Педиатрия». Результаты педагогического эксперимента показали, что использование симуляционных сценариев, виртуальной реальности и элементов Объективного структурированного клинического экзамена (ОСКЭ) повысило показатель усвоения профессионального языка студентами на 13,3%. Выводы исследования послужат совершенствованию методики преподавания медицинского английского языка.

Ключевые слова: медицинское образование, дидактическая модель, английский язык, симуляционные технологии, профессионально-коммуникативная компетенция, ОСКЭ, стандартизированный пациент.

A DIDACTIC MODEL FOR TEACHING ENGLISH IN HIGHER EDUCATION BASED ON SIMULATION TECHNOLOGIES

Yigitaliyeva Nozimaxon Farxodjon qizi

Fergana Medical Institute of Public Health, Lecturer.

Abstract.

This article analyzes the didactic model of integrating simulation technologies into the English language teaching process at higher medical educational institutions. Within the scope of the study, a comparative analysis was conducted on the effectiveness of traditional and simulation methods in developing the professional and communicative competencies of pediatric students. The results of the pedagogical experiment demonstrated that the use of simulation scenarios, virtual reality, and elements of the Objective Structured Clinical Examination (OSCE) increased the students' professional language acquisition rate by 13.3%. The findings of the research will serve to improve the methodology for teaching medical English.

Keywords: medical education, didactic model, English language, simulation technologies, professional-communicative competence, OSCE, standardized patient..

Kirish. Bugungi globallashuv davrida barcha kasb egalari, xususan, tibbiyot mutaxassislari uchun chet tillarini shaxsiy, professional va akademik maqsadlarda o'rganish ehtiyoji muttasil kuchaymoqda. An'anaviy til o'rganish usullari ko'pincha grammatik tarjima va yodlashga asoslangan bo'lib, zamonaviy tibbiyot talabalarining amaliy muloqotga bo'lgan ehtiyojlarini to'liq qondira olmaydi. Oliy ta'lim muassasalarida qo'llanilayotgan zamonaviy o'qitish usullari muloqotni, talabaning avtonomiyasini va amaliy tildan vaziyatli foydalanishni birinchi o'ringa qo'yadi.

Tibbiy ta'limda texnologik yutuqlar joriy etilishi va bemor xavfsizligiga e'tibor ortishi sababli an'anaviy o'qitish usullari ilg'or texnikalar, jumladan, simulyatsion ta'lim bilan to'ldirilmoqda. Sog'liqni saqlash sohasi mutaxassislari va bemorlar o'rtasida samarali aloqa o'rnatish yuqori sifatli tibbiy yordam ko'rsatishning muhim omilidir. Shu sababli bo'lajak shifokorlardan ingliz tilidan ham axborot quroli, ham yangi bilimlarni o'zlashtirish va kasbiy muloqot vositasi sifatida foydalana oladigan kompetensiyaga ega bo'lish talab etiladi. Tibbiyot oliy o'quv yurtlarida ingliz tilini o'qitishning bosh maqsadi — chet tilini professional darajada biladigan, madaniyatlararo muloqotda ishtirok etishga tayyor hamda xorijiy klinik ma'lumotlarni bemalol tahlil qila oladigan raqobatbardosh mutaxassisni tayyorlashdir.

Ushbu didaktik ehtiyojni qondirish uchun simulyatsiya, manekenlar va boshqa simulyatsiyaga asoslangan ta'lim usullaridan foydalanish o'zining arzonligi, xavfsizligi hamda qayta foydalanish mumkinligi tufayli tobora ommalashib bormoqda [7]. Simulyatsion ta'lim talabalarga klinik ko'nikmalarni xavfsiz va boshqariladigan muhitda mashq qilish imkonini beradi hamda hayotiy vaziyatlarni yengish uchun real ssenariylarni taqdim etadi [1]. **Zamonaviy tibbiy ta'limda** interfaol metodlarni integratsiya qilish kasbiy muloqotni rivojlantirishning asosiy omiliga aylanmoqda. Xususan, **Jamoaga asoslangan o'qitish (Team-Based Learning – TBL)** yondashuvini tibbiy ingliz tili darslariga tatbiq etish orqali talabalarda hamkorlikda ishlash va klinik muammolarni guruh bo'lib xorijiy tilda hal qilish ko'nikmalari shakllantiriladi [9]. TBL metodikasi simulyatsion muhit bilan birlashganda talabalar nafaqat individual, balki jamoaviy klinik qaror qabul qilish jarayonida ingliz tilidagi kasbiy terminologiyadan faol foydalanishga o'rganadilar.

Bundan tashqari, an'anaviy fantomlar bilan bir qatorda **3D simulyatsion texnologiyalarga** asoslangan klinik holatlarning (3D simulation-based clinical cases) o'quv jarayoniga kiritilishi ta'lim realizmini sezilarli darajada yuksaltiradi [10]. 3D formatidagi vizualizatsiya talabalarga anatomik tuzilmalar va patologik jarayonlarni chuqur anglagan holda, **“standartlashtirilgan bemor”** bilan ingliz tilida ishonchli, to'g'ri va argumentli muloqot qurish imkonini beradi. Bu kabi ilg'or va realistik texnologiyalarning aniq didaktik modellarini yaratish bugungi kunda oliy tibbiy ta'lim oldida turgan eng dolzarb vazifalardan sanaladi.

MATERIAL VA METODLAR

Ushbu tadqiqot tibbiyot oliy ta'lim muassasalarining **“Pediatriya ishi”** yo'nalishi talabalariga ingliz tilini o'qitishda simulyatsion metodlarni qo'llash samaradorligini aniqlash maqsadida maxsus pedagogik eksperiment shaklida tashkil etildi.

Tadqiqot obyekti sifatida Farg'ona jamoat salomatligi tibbiyot instituti, Andijon davlat tibbiyot instituti hamda Namangan Impuls tibbiyot institutida tahsil olayotgan jami **348 nafar talaba** jalb qilindi. Olingan ma'lumotlarning xolisligini ta'minlash maqsadida talabalar ikki guruhga ajratildi: an'anaviy usulda ta'lim oluvchi **nazorat guruhi** (172 nafar) va ingliz tili darslarida simulyatsion texnologiyalar qo'llanilgan **tajriba guruhi** (176 nafar). O'quv jarayoni tabiiy sharoitda, amaldagi o'quv dasturlariga sun'iy o'zgartirishlar kiritilmagan holda amalga oshirildi.

Tadqiqot quyidagi bosqichlarda olib borildi:

1. Tashkiliy-dagnostik bosqich. Tajriba boshlanishidan oldin talabalarining ingliz tilidagi boshlang'ich bilim va kasbiy-kommunikativ kompetensiyalari darajasini aniqlash maqsadida **English Language Placement Test (A2–B1 daraja)** hamda diagnostik so'rovnomalar o'tkazildi.

2. Asosiy eksperimental bosqich. Nazorat guruhida darslar an'anaviy metodlar asosida olib borildi. Tajriba guruhida esa ingliz tili mashg'ulotlariga simulyatsion texnologiyalar integratsiya qilindi. Jumladan, interfaol klinik vaziyatlar tahlili, **“standartlashtirilgan bemor”** bilan muloqot, rolli o'yinlar (case-study), fantom va manekenlar, virtual reallik (VR) texnologiyalari hamda virtual trenajyorlardan foydalanildi. Talabalar ingliz tilida **“Child with Fever”, “Routine Physical Examination”** va **“Immunization and Hygiene”** kabi real klinik ssenariylar asosida anamnez yig'ish, tashxisni tushuntirish va davolash bo'yicha tavsiyalar berish ko'nikmalarini rivojlantirdilar.

Tajriba guruhida qo'llanilgan asosiy didaktik vositalar quyidagilardan iborat bo'ldi:

- pediatrik manipulyatsiyalarni bajarishga mo'ljallangan fantom va manekenlar;
- multimedia va virtual reallik (VR) texnologiyalariga asoslangan virtual trenajyorlar;
- real shifoxona muhitini modellashtiruvchi klinik ssenariylar;
- **Obyektiv tizimlashtirilgan klinik imtihon (OSCE)** formatidagi topshiriqlar;
- **“standartlashtirilgan bemor”** ishtirokidagi interfaol rolli o'yinlar (case-study).

3. Yakuniy baholash bosqichi. Har ikki guruh talabalarining o'zlashtirish ko'rsatkichlari yakuniy test hamda **OSCE** stansiyalari orqali qayta baholanib, natijalar qiyosiy tahlil qilindi.

Tadqiqot davomida **OSCE** elementlari nafaqat yakuniy baholash vositasi, balki o'qitish jarayonining faol tarkibiy qismi sifatida ham qo'llanildi. Ingliz tilidagi kasbiy muloqot kompetensiyasini rivojlantirish maqsadida quyidagi stansiyalar tashkil etildi (har bir stansiya uchun o'rtacha **10 daqiqa** vaqt ajratildi):

1-stansiya – Anamnez yig'ish. Talaba **“standartlashtirilgan bemor”** bilan ingliz tilida birlamchi muloqotni (Building Rapport) amalga oshirib, belgilangan algoritm asosida bemorning shikoyatlarini aniqlaydi.

2-stansiya – Routine Physical Examination. 3D simulyatorlar va fantomlar yordamida obyektiv ko'rik o'tkazish jarayonida talabaning harakatlarini ingliz tilida izchil va tushunarli sharhlashi baholandi.

3-stansiya – Diagnosis and Recommendation. Talaba olingan klinik ma'lumotlar asosida tashxisni tushuntiradi, davolash rejasini muhokama qiladi hamda **"Immunization and Hygiene"** mavzusida ingliz tilida profilaktik tavsiyalar beradi [11].

Jarayon davomida ilmiy xolislik va baholashning shaffofligini ta'minlash maqsadida xalqaro standartlarga moslashtirilgan batafsil **checklistlar** hamda o'z-o'zini baholash varaqlaridan foydalanildi. Ularda talabani tibbiy terminologiyadan to'g'ri foydalanishi, grammatik aniqligi, nutq ravonligi, noverbal muloqot (empatiya) ko'nikmalari hamda klinik xulosa chiqarish tezligi alohida mezonlar asosida baholandi.

Talabalarining xorijiy tildagi kasbiy-kommunikativ kompetensiyalarini baholash uchun quyidagi mezonlar ishlab chiqildi: **gnoseologik-tahliliy, amaliy-simulyatsion, kommunikativ-deontologik hamda reflektiv-korreksion**. Mazkur mezonlar asosida yakuniy natijalar **OSCE** stansiyalari, checklistlar va o'z-o'zini baholash varaqlari yordamida kompleks tarzda baholandi.

NATIJALAR

Tajriba-sinov ishlari davomida olingan ma'lumotlar shuni ko'rsatdiki, simulyatsion texnologiyalarni ingliz tili darslariga joriy etish pediatriya yo'nalishi talabalarining kasbiy-kommunikativ ko'nikmalarini sezilarli darajada oshirdi.

Miqdoriy ko'rsatkichlar. Dastlabki diagnostika (Pre-test) bosqichida tajriba va nazorat guruhlaridagi talabalarining bilim va malakalari o'rtasidagi farq sezilarli emasligi aniqlandi. Tajriba guruhidagi o'rtacha o'zlashtirish ko'rsatkichi **60,3 %** ni, nazorat guruhida esa **58,7 %** ni tashkil etdi. Simulyatsion mashg'ulotlar to'liq o'tkazilgach, yakuniy baholash (Post-test) natijalariga ko'ra, tajriba guruhidagi o'rtacha o'zlashtirish ko'rsatkichi **72,3 %** gacha ko'tarildi. An'anaviy usulda o'qitilgan nazorat guruhida esa bu ko'rsatkich bor-yo'g'i **59,0 %** ni tashkil qildi.

Samaradorlik va statistik isbot. Simulyatsion metodlar asosida o'qitilgan tajriba guruhi talabalarining o'zlashtirish ko'rsatkichlari nazorat guruhiga nisbatan **13,3 %** ga yuqori bo'ldi. Olingan o'zgarishlarning ishonchligi **Styudent** va **Pirsonning** muvofiqlik mezonlari yordamida tasdiqlanib, o'sish dinamikasi qonuniy ekanligi asoslandi.

Olingan umumiy natijalarning aniq dinamikasini kuzatish uchun talabalarining kasbiy-kommunikativ kompetensiyalari oldindan belgilangan **to'rtta** asosiy mezon asosida tahlil qilindi: gnoseologik-tahliliy, amaliy-simulyatsion, kommunikativ-deontologik hamda reflektiv-korreksion mezonlar. Dastlabki (Pre-test) va yakuniy (Post-test) baholash natijalari quyidagi **1-jadvalda** o'z aksini topgan.

1-jadval. Nazorat va tajriba guruhlarida talabalarining mezonlar bo'yicha o'zlashtirish ko'rsatkichlari dinamikasi (%)

Baholash mezonlari	Nazorat guruhi (Pre-test)	Tajriba guruhi (Pre-test)	Nazorat guruhi (Post-test)	Tajriba guruhi (Post-test)
Gnoseologik-tahliliy (Tibbiy terminologiyani bilish)	59,2	60,5	60,1	71,4
Amaliy-simulyatsion (Tilni klinik vaziyatda qo'llash)	58,1	59,8	58,5	73,8
Kommunikativ-deontologik (Bemor bilan erkin muloqot va empatiya)	58,4	60,1	58,8	74,2
Reflektiv-korreksion (Xatolarni tahlil qilish, debriefing)	59,1	60,8	58,6	69,8
o'rtacha umumiy ko'rsatkich	58,7%	60,3%	59,0%	72,3%

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, an'anaviy ta'lim olgan nazorat guruhida yakuniy ko'rsatkichlar deyarli o'zgarmagan (58,7 % dan 59,0 % gacha). Biroq dars jarayoniga 3D simulyatsiyalar, "standartlashtirilgan bemor" va OSCE stansiyalari integratsiya qilingan tajriba guruhida eng yuqori o'sish kommunikativ-deontologik (74,2 %) va amaliy-simulyatsion (73,8 %) mezonlarida kuzatildi. Bu shuni anglatadiki, simulyatsion texnologiyalar talabalarga shunchaki tibbiy lug'atni yodlashga emas, balki tilni real klinik vaziyatda spontan tarzda, psixologik to'siqlarsiz qo'llashga yordam bergan.

Sifat o'zgarishlari. So'rovnomalar va OSCE formatidagi imtihonlar tajriba guruhida jiddiy ijobiy siljishlarni qayd etdi:

- **Terminologik bazaning mustahkamlanishi.** Talabalar tibbiy ingliz tili terminologiyasini quruq

yodlashdan ko'ra, undan amaliy klinik muloqotda aniq va to'g'ri foydalanishni o'rgandilar [6; 155-b.].

- **Og'zaki muloqotdagi erkinlik.** Simulyatsion muhit psixologik to'siqlarni bartaraf etdi. Talabalar "standartlashtirilgan bemorlar" bilan muloqotda kasbiy ingliz tilida o'z fikrlarini ishonchli va erkin ifoda eta oldilar [4; 275-b.].

- **Klinik qaror qabul qilish.** Ssenariylar asosida modellashtirilgan stressli holatlar talabalarni ingliz tilida tezkor fikrlashga va tibbiy qarorlar qabul qilishga majbur qildi [2; 435-b.].

MUHOKAMA

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, tibbiy ta'limda ingliz tilini o'qitishni faqat grammatik-leksik qoidalar bilangina chegaralab bo'lmaydi. Xalqaro olimlardan D.M. Gaba [1; 5-b.], M. Aebersold [2; 436-b.], J.B. Cooper [3; 566-b.] kabi tadqiqotchilar ham o'z ishlarida simulyatsion ta'lim talabalarda analitik fikrlash, refleksiv yondashuv va muloqot ko'nikmalarini rivojlantirishda muhim pedagogik vosita ekanligini ta'kidlaganlar.

Bizning tadqiqotimiz M. O'Hara va D. Lane [4; 276-b.], V. Allum [5; 42-b.] hamda G. Sostmann [6; 157-b.] kabi xorijiy izlanuvchilarning xulosalarini to'ldiradi va ularni mahalliy ta'lim muhitida tasdiqlaydi. Ular ham ingliz tilini o'rganayotgan tibbiyot talabalari uchun **"standartlashtirilgan bemorlar"** va virtual muhitlar til o'rganish samaradorligini keskin oshirishini qayd etganlar. O'zbekiston misolida o'tkazilgan ushbu tajriba shuni ko'rsatadiki, simulyatsion metodlar orqali til o'rganuvchilarda haqiqiy shifoxona sharoitiga moslashuv tezlashadi va til o'rganishdagi sun'iylik yo'qolib, sof kasbiy ehtiyojga aylanadi. Shuningdek, talabalarining **13,3 %** lik sezilarli o'sishi xavfsiz muhitda xatolardan saboq chiqarish (debrifing) amaliyotining naqadar foydali ekanini dalillaydi [7; 22-b.].

Tadqiqotimiz natijasida olingan **13,3 %** lik sezilarli o'sish ko'rsatkichi nafaqat tilni o'zlashtirish, balki kognitiv yuklamaning (*cognitive load*) pasayishi bilan ham izohlanadi. An'anaviy ta'limda tibbiyot talabalari xorijiy tildagi ma'lumotni ongda tarjima qilib, so'ngra tibbiy xulosa chiqarishga majbur bo'ladilar, bu esa vaqt talab etadi va stressni oshiradi. Simulyatsion muhitda esa talabalar vizual, eshitish va kinestetik kanallar orqali tilni to'g'ridan-to'g'ri klinik harakatlar bilan bog'laydilar. Biz joriy etgan jamoaga asoslangan o'qitish (TBL) va 3D modellashtirishning ingliz tili darslaridagi uyg'unligi talabalarining kasbiy avtonomiyasini oshirgani tasdiqlandi. Simulyatsiyadan keyingi muhokama (debrifing) bosqichida talabalarining o'z xatolarini mustaqil tahlil qilishi (**refleksiv-korreksion mezonda 69,8 % ko'rsatkich**) xavfsiz psixologik muhit yaratilganligini isbotlaydi. Bemor xavfsizligiga xavf tug'dirmaydigan bunday virtual sharoitlar bo'lajak shifokorlarning ingliz tilidagi og'zaki nutqida ravonlik (*fluency*) va aniqlikni (*accuracy*) barobar rivojlantirishga xizmat qiladi.

Oliy tibbiy ta'limda bo'lajak shifokor-pediatrlarga ingliz tilini o'qitishda simulyatsion texnologiyalardan foydalanish an'anaviy o'qitish metodlariga nisbatan ancha samarali va zamonaviy didaktik model ekanligi ilmiy hamda amaliy jihatdan isbotlandi. Bu yondashuv talabalarga kasbiy terminologiyani integratsiyalashgan holda o'zlashtirish, bemorlar bilan xorijiy tilda samarali va empatik muloqot o'rnatish, shuningdek, global kommunikativ muhitda erkin faoliyat yuritish imkonini beradi. Tadqiqot xulosalariga tayanib, kelgusida tibbiyot oliygohlarining xorijiy tillar kafedralari amaliy o'quv dasturlariga Obyektiv tizimlashtirilgan klinik imtihon (OSCE) formatidagi simulyatsion muloqot stansiyalarini keng joriy etish tavsiya qilinadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Gaba D. M. The Future Vision of Simulation in Health Care // *Quality and Safety in Health Care*. – 2004. – Vol. 13, Suppl. 1. – P. i2–i10.
2. Aebersold M., Titler M. G. Simulation as a Teaching Strategy to Improve Learner and Health Outcomes // *Nursing Clinics of North America*. – 2014. – Vol. 49. – No. 3. – P. 431–439.
3. Cooper J. B., Taqueti V. R. A Brief History of the Development of Mannequin Simulators for Clinical Education and Training // *Postgraduate Medical Journal*. – 2008. – Vol. 84. – No. 997. – P. 563–570.
4. O'Hara M., Lane D. Simulated Patients in Medical English Teaching: An Approach to Developing Communication Skills for Foreign Medical Students // *English for Specific Purposes*. – 2012. – Vol. 31. – No. 3. – P. 271–277.
5. Allum V. *English for Medical Purposes: Doctors*. – Morrisville: Lulu.com, 2012.
6. Sostmann G. C. M., de Leng B. A. Integrating Language and Clinical Skills in Virtual Patient Simulations: An Innovative Approach in Medical Education // *Medical Teacher*. – 2021. – Vol. 43. – No. 2. – P. 150–158.
7. Issenberg S. B., McGaghie W. C., Petrusa E. R., Gordon D. L., Scalese R. J. Features and Uses of High-Fidelity Medical Simulations That Lead to Effective Learning: A BEME Systematic Review // *Medical Teacher*. – 2005. – Vol. 27. – No. 1. – P. 10–28.
8. Michaelsen L. K., Sweet M. Team-Based Learning // *New Directions for Teaching and Learning*. – 2011. – No. 128. – P. 41–51.
9. Al-Elq A. H. Simulation-Based Medical Teaching and Learning // *Journal of Family and Community Medicine*. – 2010. – Vol. 17. – No. 1. – P. 35–40.
10. Ziv A., Ben-David S., Ziv M. Simulation-Based Medical Education: An Opportunity to Learn from Errors // *Medical Teacher*. – 2005. – Vol. 27. – No. 3. – P. 193–199.
11. Lateef F. Simulation-Based Learning: Just Like the Real Thing // *Journal of Emergencies, Trauma, and Shock*. – 2010. – Vol. 3. – No. 4. – P. 348–352.
12. Barry M., O'Callaghan C., Bradshaw C. Integrating English as a Second Language (ESL) Support in Medical Simulation: A Scoping Review // *Simulation in Healthcare*. – 2023. – Vol. 18. – No. 2. – P. 120–128.
13. Kim J., Park J. The Effect of Objective Structured Clinical Examination (OSCE) on Medical Students' Clinical Performance and Confidence // *International Journal of Medical Education*. – 2022. – Vol. 13. – P. 15–22.